O‘QUVCHILARNING AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI

Xosilova Nigina Shuhrat qizi
Guliston davlat pedagogika insituti
Pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda oilaning o‘rni, ota-onaning namunaliligi, oilaviy muhitning ta’siri hamda maktab va oila

hamkorligi masalalari yoritilgan. Maqolada zamonaviy oilalardagi tarbiyaviy muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy fazilatlar, oila, tarbiya, o‘quvchi, ota-ona, ma’naviyat, pedagogika,maktab, odob, farzand, hamkorlik, oilaviy muloqot,

,,Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan’’.1

Bugungi kunda yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash har bir oila, maktab va butun jamiyatning eng muhim vazifasidir. O‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda eng birlamchi muhit bu - oila hisoblanadi. Chunki bola dunyoni avvalo oilada, ota-onasi orqali tanlaydi. Oila - bu jamiyatning bir bo‘g‘inidir, tarbiyaning birinchi maktabi, ota-ona esa uning birinchi ustozidir.

Axloqiy fazilatlar - bu insonning halollik, adolat, sadoqat, mehr-oqibat, hurmat, mas’uliyat, odob kabi ichki sifatlarini ifodalaydigan xulq-atvor me’yorlari majmuasidir. Oddiy so‘z bilan aytganda, axloqiy fazilatlar - bu insonni inson qiladigan ichki sifatlar: to‘g‘rilik, samimiyat, mas’uliyat, sabr, sadoqat, hurmat, adolat, halollik kabi fazilatlar.Shaxsda bu fazilatlar tarbiya, muhit va shaxsiy tajriba orqali shakllanadi.

Pedagog olima A. Umarovaning ta’kidlashicha, “axloqiy fazilatlar insonning ijtimoiy me’yorlarga asoslangan, ongli xatti-harakatida namoyon bo‘ladigan barqaror sifatlar tizimidir”.2

Oila bolaning eng yaqin va tabiiy tarbiya muhiti hisoblanadi. Farzand dastlab axloqiy me’yorlarni o‘z ota-onasining xatti-harakatidan o‘rganadi. Agar bola oilasida mehr, hurmat, halollik, sabr kabi qadriyatlarni ko‘rsa, u bularni tabiiy ravishda o‘zlashtiradi. Ota-onaning bir-biriga mehr bilan munosabatda bo‘lishi, kattalarni hurmat qilishi, rostgo‘y bo‘lishi farzand uchun amaliy namuna bo‘ladi. Bolaning axloqiy dunyoqarashi og‘zaki nasihatlardan ko‘ra, ota-onaning shaxsiy namunasi orqali shakllanadi. Shu jihatdan, qomusiy olim, buyuk bobomiz Abu Ali Ibn Sino o‘zining ,,Tadbir ul - manozil " asarida : “Farzand tarbiyasida avvalo ota-ona o‘zini tarbiyalashi zarur. Chunki bola ota-onaning so‘ziga emas, amaliy xulqiga taqlid qiladi.”3 - deya ta’kidlaydi.

Farzand ilk tarbiyani oiladan oladi va shu ilk berilgan tarbiya uning hayoti davomida o‘z ifodasini topadi. Ota ona farzandining axloqiy fazilatlarini yoshlikdan ularga o‘rgatib borishi va bu jihatdan o‘zlari namuna bo‘lmog‘i lozim.

Kattalarga hurmatda bo‘lishni o‘rgatishi ya`ni bobo va buvilarga, ota-onalarga, aka va opalarga yaxshi munosabatda bo‘lish, ulardan hol-ahvol so‘rashni o‘rgatmoq lozim.

Mehr - shafqatni rivojlantirish va tarbiyalash, misol uchun bolalarni yoshligidan atrofdagilarga mehrli va yaxshi munosabatda bo`lishga, hayvonlarga mehrli bo‘lishni, ularga ozor bermaslikni o‘rgatish.

Bolalarni yoshlikdan mehnatsevarlikga o‘rgatish ya`ni ularga yoshligidan turli yumushlarni bajarishga o‘rgatish va shu orqali mehnatni qadrlashga o‘rgatish.

Bolalarni rostgo‘ylikga o‘rgatish, hech qachon yolg‘on gapirmaslikga o‘rgatish, yolg‘on hech qachon manfaatli bo‘lmasligini ularga yoshligidan uqtirish.

Qo‘llab quvvatlovchi muhitni yaratish yani oiladagi barcha a’zolarni doimo qo‘llab quvvatlash, ularga mehr muhabbatli, doimo yordam berib ularni qo‘llash hissini uyg‘otish va tarbiyalab borish va bu orqali oiladagi ijodiy muhit va yaqinlik hissini yaratish muhimdir.

Muloqot madaniyatini o‘rgatish, bolalarga yoshligidan kattalarga baland ovozda gapirmaslikni, insonlarni oldida o‘zini tuta bilishni, gapni bo‘lmaslikni va shu kabi qoidalarni o‘rgatish va doimo buni ta’kidlab borish farzand tarbiyasida juda muhim.

Tozalik va tartiblilikni o‘rgatish, bolalarga yoshligidan tozalikga rioya qilishlarini o‘rgatish, har bir ishda tartibli bo‘lishi, tartibli bo‘lgan ishda doim unum bo‘lishi haqida yoshlarga tushunchalar berish lozim.

Mas’uliyat hissini shakllantirish, bu bilan har bir bola o‘ziga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni o‘z vaqtida bajarishni o‘rganadilar bu esa ularda mustaqillilik va mas’uliyat hissini uyg‘otadi.

Asosiy qadriyatlarni shakllantirish, oilada farzandning axloqiy kompasini tashkil etuvchi: hurmat, halollik, sevgi, mehr tuyg‘ulari ularning yanada jipslashuvini taminlaydi.

Axloqiy fikrlashni rivojlantirish ya'ni ota onalar frzandlariga savollar berish va o‘z fikrlarini ifoda etishga undash orqali axloqiy masalalar yuzasidan tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Farzandlar tarbiyasida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning oiladan keyingi jarayon ta’lim muassasalari roli hisoblanadi

Empatiya ya`ni boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va baham ko'rish va ularning qiyin paytlarida hamdard bo'lish, boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish, mehribonlilik ko‘rsatish kabi sifatlarning yoshlikdan o‘rgatilishi bolaning axloqiy fazilatlarini mustahkamlaydi.

Farzandlar tarbiyasida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning oiladan keyingi jarayon ta’lim muassasalarining roli hisoblanadi. O‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirish faqat oilaning vazifasi emas, balki maktab bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan uzviy jarayondir. Maktabda o‘qituvchi tarbiyaviy soatlar, suhbatlar, sinf tadbirlari orqali axloqiy fazilatlarni mustahkamlasa, oila esa bu fazilatlarni kundalik hayotda qo‘llashga o‘rgatadi. Masalan, o‘qituvchi halollik haqida dars o‘tsa, oila esa bolaga shaxsiy hayotda yolg‘on gapirmaslikni amalda ko‘rsatishi kerak. Shu tarzda ta’lim va tarbiya bir-birini to‘ldiradi.

Zamonaviy oilalarda bugungi kunda tarbiyaviy muammolar ko‘p hollarda texnologiya, vaqt yetishmasligi, ota-onalarning bandligi yoki qadriyatlardagi o‘zgarishlar, oilaviy muloqotning kamayishi kabi holatlar axloqiy tarbiyani susaytiradi. Natijada bolalar e’tibor va mehr yetishmasligidan, odob-axloq normalariga befarq bo‘lib qolishlari mumkin. Shu bois, zamonaviy ota-onalar nafaqat moddiy, balki ma’naviy mas’uliyatni ham chuqur his etishlari lozim.

Bunga bir qancha amaliy takliflarni keltirishimiz mumkin:

Ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligini oshirish, ota-onalar uchun psixologik va pedagogik seminarlar, “farzand tarbiyasida zamonaviy yondashuvlar” mavzusida treninglar tashkil etish kerak. Masalan, ota-onalar bolaga faqat buyruq bermasdan, tinglash, tushunish va qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, oila o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda eng asosiy tarbiyaviy muhit hisoblanadi. Ota-onaning namunaliligi, mehr-muhabbati, oilaviy muloqot madaniyati bola shaxsini komillikka yo‘naltiradi. Maktab esa bu jarayonni ilmiy asosda mustahkamlab, oilaga pedagogik yordam berishi kerak. Shuning uchun, har bir oila o‘z farzandining ma’naviy dunyosiga e’tiborli bo‘lib, uni halollik, adolat, sadoqat, sabr, hurmat kabi fazilatlar asosida voyaga yetkazishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ,,Shavkat Mirziyoyev"ning hikmatlar sahifasi. - Hikmatlar.uz
2. Umarova, A.A. ,,Oilada bolalarni ma’naviy axloqiy tarbiyalash masalalari``,2021
3. Ibn Sino. ,,Tadbir ul-manozil``. Toshkent: ,,Fan", 1980. (o`zbekcha tarjima nashr)

4.,,Shaxs va oila tarbiyasining pedagogik asoslari``, 2024. Renessans-edu.uz elektron kutubxonasi